

Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

gulnorajumayeva117@gmail.com

JAMIYATNING MA'NAVIY KAMOLOTIDA MUALLIM KASBIY MADANIYATINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mukammallikni izlash insonning kasbiy rivojlanishi bilan birga yuzaga keladigan va deyarli umr bo'yi davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy rivojlanish deganda shaxsning ma'lum bir sohaga, shuningdek, ma'lum bir kasbga, ularning qadriyatlari va dunyoqarashiga, aqliy hamda jismoniy qobiliyatlari, qiziqishlari va harakatlari bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kasbiy madaniyat, tarbiyachi-pedagog, mutaxassis, umuminsoniy qadriyatlar, falsafiy, psixologik, sotsiologik, inson kamoloti.

ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧИТЕЛЯ В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. Стремление к совершенству – это сложный процесс, происходящий вместе с профессиональным становлением человека и продолжающийся практически на протяжении всей жизни. В широком смысле профессиональное развитие проявляется в связи с конкретной сферой деятельности человека, а также конкретной профессией, его ценностями и мировоззрением, умственными и физическими способностями, интересами и действиями.

Ключевые слова: профессиональная культура, педагог-педагог, специалист, общечеловеческие ценности, философская, психологическая, социологическая, человеческая зрелость.

CHARACTERISTICS OF A TEACHER'S PROFESSIONAL CULTURE IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation. The pursuit of excellence is a complex process that occurs along with the professional development of a person and continues almost throughout life. In a broad sense, professional development is manifested in connection with a specific area of human activity, as well as a specific profession, its values and worldview, mental and physical abilities, interests and actions.

Key words: professional culture, teacher-teacher, specialist, universal values, philosophical, psychological, sociological, human maturity.

Kirish. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida shiddat bilan amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi vazifalarning strategik yo'nalishi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, tarbiyachi-pedagogning ta'lim jarayoniga obyektiv, to'g'ri yondashishi, uning o'quvchilar faoliyatini jamoa oldidagi xizmatlariga muvofiq baholay olishdagi axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniq belgilaydigan mutaxassis kadrlarning masalalariga qaratilganligi bilan ifodalanadi.

Jamiyatning ma'naviy tiklanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda malakali kadrlar tayyorlash milliy masalasi muhim o'rin tutadi. Shu bois ham xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida madaniyat, iqtisodiyot va

82 zamonaviy fan-texnikaning yangi yutuqlariga asoslangan yuqori malakali kadrlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish orqali ularning dunyoqarashini, ma'naviy-axloqiy tafakkurini boyitish va rivojlantirishning ilmiy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbalar hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining qomusiy asarlarida yoritib berilgan. Respublikamiz olimlaridan D.O.Ximmataliyev, M.Ochilov, R.Mavlonova, K.Zaripov, O.Musurmonova, A.Xoliqov va boshqalar pedagogik faoliyat mazmuni, o'qituvchi mahoratini shakllantirish va rivojlantirish, kasbiy madaniyati to'g'risidagi ilmiy asoslangan fikrlari bilan maqsad, vosita va xususiyatlarini yoritib bergan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastenin, Y.V.Bondarevskaya, O.S.Matveyeva, L.V.Benin, Y.V.Bondarevskoylar tomonidan mutaxassis kasbiy madaniyati mazmunini aniqlashtirish, kasbiy professiogrammani ishlab chiqish, o'qituvchining kasbiy madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha Arnold, Jason Diamond (Arnold, Jeyson Daymond), Chris Watling Erik Driessen (Erik Drissen), James Gerard (Pirs, Jeyms Jerard), Szeto, Elson (Szeto, Elson) kabi mutaxassis olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, **o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini** aniqlash mezonlari tahlili qilindi va o'ziga xos pedagogik shartlari tadqiq etilgan.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash mumkinki, komil insonni shakllantirishda munosib kasb-hunar egallashi, jamiyat rivojiga qo'shgan bebaho hissasi va bu orqali uning shaxsining jamiyatda namoyon bo'lishi, ya'ni inson kamoloti hisobga olinadi. Mukammallikni izlash insonning kasbiy rivojlanishi bilan birga yuzaga keladigan va deyarli umr bo'yi davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma'noda kasbiy rivojlanish deganda shaxsning ma'lum bir sohaga, shuningdek, ma'lum bir kasbga, ularning qadriyatlari va dunyoqarashiga, aqliy hamda jismoniy qobiliyatlari, qiziqishlari va harakatlari bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Kasbiy madaniyat pedagogik faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Pedagogikada kasbiy madaniyatni aynan shunday tushunish qabul qilingan bo'lib, u o'qituvchi belgilangan vaqt ichida erishishi mumkin bo'lgan optimal natijaga olib keladigan pedagogik faoliyatning oliy darajasi sanaladi.

Albatta, tashqi tomondan kasbiy madaniyat turli pedagogik topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal etishda, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ammo uning mohiyati shunday faoliyatni yuzaga chiqaradigan va uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar va pedagogik qobiliyatlarga bog'liq. Zero, shunday sifatlarni faqat ko'nikmalardangina emas, balki o'qituvchi uchun samarali va ijodiy faoliyat ko'rsatishga yordam beradigan shaxsiy hususiyatlardan izlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasiga ko'ra quyidagi jihatlar muhim vazifalar sifatida belgilangan:

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash;
- pedagog kadrlarni ishga qabul qilishda ularning malaka darajasini aniqlash uchun aniq talablarni ishlab chiqish;
- pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash;
- inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish;
- pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;
- yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

- davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetentsiyalar va o'quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishini ta'minlash va boshqalar. Ushbu holatlar yana bir bor maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammosini dolzarb ekanligini belgilaydi.

Kasbiy madaniyat kontseptsiyasida kasbiy bilim va fikrlash tarzi bilan bir qatorda faol ishlab chiqarish va kasbiy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlik omillari ko'rsatilgan.

Zamonaviy o'qituvchi uchun nazariy va pedagogik muammolarni tushunish, kontseptual pedagogik apparatni o'zlashtirish, pedagogik texnologiyalardan xabardorlik, pedagogik jarayonning asosiy qismlarini (maqsad, mazmun, shakl, usul, vositalar, boshqaruv, tashkil etish va boshqalar) amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik faoliyatni o'zi, pedagogik funktsiyalar tizimini qayta ko'rib chiqish vazifasi ham aktualashtirilmoqda.

So'nggi yillarda madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishda ikki yo'nalish paydo bo'ldi. Birinchi yo'nalishning mazmuni madaniyatning o'ziga xos jihatlari va yo'nalishlarini o'rganishdan iborat. Ikkinchi tendentsiya madaniyatning turli tomonlarini birlashtirish, uni yagona, yaxlit ta'lim sifatida taqdim etish istagida ifodalanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyatining ontologik (muhim) xususiyatlarini o'rganish ko'rsatilgan ikkita tendentsiyaning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Madaniyat va kasbiy madaniyat tushunchalarining mazmuni ilmiy manbalarda falsafiy, psixologik, sotsiologik va pedagogik nuqtai nazardan izohlanadi. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarga ega.

Kasbiy madaniyat va o'qituvchining psixologik tayyorgarligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu borada shaxsning individual psixologik xususiyatlari va faoliyat turi muhim rol o'ynaydi.

Faoliyat insonning tashqi olamga voqelikka bo'lgan munosabatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u shaxsning o'zini va atrof-olamni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan faol harakatidir. Bu jarayon insonning ongli maqsad asosida ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlarni yaratish va o'zlashtirishning ijtimoiy tajribasidan iborat. Shu bilan birga faoliyat ijtimoiy madaniy hodisa sifatida inson mavjudligini namoyon etuvchi xususiyat bo'lib, u yaxlit jarayon sifatida olamni, ijtimoiy borliqni o'zlashtirish va o'zgartirishga qaratilgan.

Praksiologiya (yunoncha "praktikos"- faol) - falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan alohida bo'limi mavjud. Faoliyat tushunchasi inson mavjudlik mohiyatini anglatgani bois, falsafa ilmining tadqiqot ob'ekti sifatida faylasuflar e'tiborini tortgan. Aflotun "Har bir kishi o'zidagi mavjud qobiliyatlarga ko'ra davlat uchun kerakli bo'lgan biror ish bilan shug'ullanishi zarur" ekanligini ta'kidlaydi. Arastu esa faoliyatni aql bilan bog'liq hodisa sifatida o'rganadi va oqillik amaliy faoliyat asosi bo'lgani uchun uni faol va bunyodkor fazilatlar turkumiga kiritadi. Mazkur fikrlar yunon faylasuflarida faoliyatga fazilatni belgilovchi mezon sifatida munosabat bildirilganligini ko'rsatadi.

S.L.Rubinshteynning "Inson va uning ruxiyati amaliy faoliyati orqali shakllanadi va namoyon bo'ladi, shuning uchun uni faoliyatning asosiy turlari (mexnat, ta'lim, o'yin, v.h.k) yordamida o'rganish zarur, degan fikri muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, faoliyat madaniyatning mezoniy tushunchasi (kategoriyasidir). Madaniy jarayonlar faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'langan bo'lib, u inson ehtiyoj va qobiliyatlarining ijtimoiy shaklida yuzaga chiqadi. Faoliyat orqali ro'yobga chiqadigan ne'matlar, oddiy yoki keng ishlab chiqarish inson qobiliyatining natijasidir.

Faoliyat insonning nafaqat tashqi olam bilan munosabatini, balki ichki dunyosini ham o'zgartiradi. Bu xolat, ayniqsa, ta'lim, tarbiya va boshqa ijtimoiy munosabatlar sohasida in'ikos etadi. Shuning uchun falsafa faoliyatni tahlil qilar ekan, uni "insoniyat jamiyati mavjudligining shakli, borlig'ini, tashqi dunyoni, insonning o'zini maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirishga qaratilgan eng muxim xossalardan biri, deb hisoblaydi va faoliyatning reproduktiv (qayta ishlab chiqish) hamda produktiv (yangini yaratish) turlariga ajratadi".

Kasbiy faoliyatning psixologik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati bir qancha psixologik omillar ta'sirida kechishini inobatga olish lozim. Avvalo, o'qituvchining o'qitishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat o'qituvchining diqqatida, his-tuyg'ularida, qiziqishlari va irodasida, shuningdek, shaxsning tutgan yo'lida namoyon bo'ladi.

O'qitish jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ijobiy ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatib borishdir. O'quvchilar diqqatining o'zgarishi dars jarayonida dinamik xususiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida ushbu qonuniyatlarni inobatga olish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jihatlariga jalb etish hamda ularni qayta takrorlash orqali mustahkamlash kerak. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan mavzuning tushuntirilishi hamda berilayotgan ko'rsatmalar bilan uzviy bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay xotirada saqlab qolmasdan, faqat mazmunni anglab olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z eslab qolishni hamda uning ma'nosini o'z so'zlari bilan izohlash uchun xotirada saqlab qolish zaruratini ko'rsatib o'tishi shart.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlarning shakllanishi o'qituvchi tomonidan tushuntirish ishlarining to'g'ri olib borilmaganligi bilan izohlanadi. O'qituvchining kasbiy madaniyatini rivojlantirish shaxsning emotsionalligi bilan ham uzviy bog'liq. Chunki, emotsionallik pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'qituvchidagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'qitish faoliyatining samarali kechishiga imkoniyat yaratadi. Natijada, o'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar. O'tkazilgan tajribalar o'quvchilar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib olishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida g'amxo'rlik qilishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, ta'lim mazmuni nihoyatda murakkablashib, uning hajmi oshdi. Uning o'quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish talab etiladi. Ijobiy his-tuyg'ular tarbiyaviy ish samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyat, kasbiy madaniyat tushunchalarining mazmuni hamda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari va uning pragmatik tahlilidan kelib chiqqan holda maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish tuzilmasi aniqlashtirildi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchada ifodalanadi. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Maktab o'qituvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liqlikda motivlar birinchidan, kasbiy muvaffaqiyatga undasa, ikkinchidan, to'g'ri tanlangan yo'l va usullar maqsadga erishishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi vaqtda madaniyatni o'rganishga doir uchta yo'nalish belgilangan: 1) oddiy va ma'naviy qadriyatlarning uyg'unligi sifatida; 2) inson faoliyatining o'ziga xos usuli sifatida; 3) shaxsning muhim kuchlarini ijodiy o'zini-o'zi anglash jarayoni sifatida.

Madaniyat tushunchasi mazmunining shu tarzda izohlanishi kasbiy madaniyatning quyidagi tarkibiy komponentlari haqida fikr yuritishga asos bo'ladi: aksiologik, texnologik va shaxsiy-ijodiy. Shu munosabat bilan ushbu komponentlarning mazmunini alohida ko'rib chiqish zarurati tug'iladi.

Qadriyatlar majmui sifatida kasbiy-pedagogik madaniyatni o'rganish pedagogik faoliyatda nima muhim va foydali deb hisoblanishi va unda aks ettirilishi, pedagogik jarayonning maqsadlari, mazmuni va usullari to'g'risidagi o'qituvchilarning g'oyalari qanday rivojlanishini aniqlash

imkonini beradi. Biroq, madaniyatni ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida o'rganishni faqat uning aksiologik jihatini tahlil qilish orqali cheklab bo'lmaydi.

Natijalar. Madaniyatning qadriyatli talqini uni o'zgarmas hodisa sifatida, jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida bosqichma-bosqich shakllangan va uning natijasi bo'lgan, lekin jarayon sifatida emas, balki qadriyatlar to'plami sifatida tushuntiradi. Bu esa, bizga uning ichki tuzilishini yetarli darajada to'liq o'rganish imkonini bermaydi. Har qanday tadqiqot uchun, birinchi navbatda, dastlabki parametrlar, mezonlar va baholar tizimi muhim ahamiyatga ega. Mutaxassisda kasbiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishga oid olib borilgan tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyatini inobatga olgan holda maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotchi olim I.V.Buyan modeliga binoan kasbiy madaniyatni odamlarning kasbiy guruhining atributiv mulki sifatida aniqlash maxsus faoliyat turlarini ajratishga olib keladigan mehnat taqsimotining natijasidir. Tadqiqotchi olimlar V.A.Slastenin, V.F.Isaev, Arnol'd, Jeyson Daymond va R.A.Abduxairovlar o'z ilmiy izlanishlari natijasida kasbiy-pedagogik madaniyatning uchta asosiy tarkibiy qismi: qadriyatli, texnologik va shaxsiy-ijodiy sifatlar kabi komponentlarini ajratib ko'rsatishgan. Shuning bilan birgalikda ushbu tadqiqotchilar tomonidan "pedagogik madaniyat" va "kasbiy-pedagogik madaniyat" tushunchalarining mazmuni ham izohlab berilgan.

Xulosa shundan iboratki, biz o'qituvchilarning kasbiy pedagogik madaniyati pedagogik qadriyatlar va bilimlarni o'zlashtirish, uzatish va yaratishga qaratilgan turli xil pedagogik faoliyat turlarida o'qituvchi shaxsini ijodiy o'zini-o'zi anglash o'lchovi va usulidir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yuqorida aytilganlarning barchasi kasbiy madaniyat tushunchasini kategorial turkumga kiritish imkonini beradi: pedagogik faoliyat madaniyati, pedagogik muloqot madaniyati, maktab o'qituvchisi shaxsiyati madaniyati. O'qituvchilar kasbiy madaniyati shaxsning bilimi, qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutgan holda, pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlarini umumlashtirilgan xarakteristikasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni / "O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2019 y., 17-son, 188-modda. <https://lex.uz/docs/-4312785>
2. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. Ucheb. posobie dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, YE. N. Shiyonov; Pod red. V.A. Slastenina. - M.: Izdatel'skiy sentr "Akademiya", 2013. - 576 s.
3. Professional'naya kul'tura uchitelya / Pod red. V.A.Slastenina. - M., 1993. – s.216.
4. Isaev I. F. Teoriya i praktika formirovaniya professional'no-pedagogicheskoy kul'turi prepodavatela visshey shkoli. - M., 1993. – 180 s.
5. Arnold Jason Diamond. Cultivating A Culture Of Professional Growth // <https://blog.inspiresoftware.com/cultivating-a-culture-of-professional-growth>.
6. Abduxairov R. A. Mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy pedagogik madaniyatni uzluksiz rivojlantirish. P.f.b.f.d. (PhD)..dis. – Toshkent: 2019.– 183 b.
7. Jumayeva G.T. Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari. Ta'lim, fan va innovatsiya. Jurnal, 2-son.2022. *esijournal.uz*. T.76-80 b.
8. Jumayeva G.T. A model for the development of the professional culture of school teachers based on a competency-based approach. - Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 05, May 2022 SJIF 2022 = 8.625 A peer reviewed journal P 212-219.